HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

O‘ZBEKISTON—OZARBAYBAYJON TARIXIY RISHTALAR VA HAMKORLIK ASOSLARI

Farmonov Sardorbek Xabibullo o‘g‘li
Nizomiy nomidagi O‘zMPU Tarix fakultiteti 2-bosqich talabasi
sardorbekfarmonov07@gmail.com
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.23834598

Annotatsiya: O‘zbekiston tashqi siyosatininng ustuvor yo‘nalishlari orasida Janubiy Kavkaz mintqasida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan Ozarbayjon bilan munosabatlarni rivojlantirish alohida o‘rin tutadi. Ikki mamlakat o‘rtasida mustahkam do‘stlik va birodarlik poydevoriga asoslangan ittifoqchilik munosabatlari mavjud. Qardosh o‘zbek va ozarbayjon xalqlarini umumiy din, til, urf-odatlar, madaniyat va tarixiy yaqinlik bir-biri bilan chambarchas bog‘lab turadi.

O‘zbekiston va Ozarbayjon xalqalari o‘rtasidagi tarixan shakllangan do‘stlik va hamkorlik rishtalari hozirda o‘zaro zamonaviy tamoyillarga asoslangan yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Ushbu ilmiy maqolada Markaziy Osiyo va Janubiy Kavkaz darvozalari hisoblangan O‘zbekiston hamda Ozarbayjon xalqlari o‘rtasida shakllangan hamkorlik tarixi, siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalar haqida so‘z boradi. Shuningdek, ikkitomonlama munosabatlarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan oliy darajadagi davlat tashriflari keltiriladi.

Kalit so‘zlar: Tarixiy rishtalar, siyosiy va iqtisodiy hamkorlik, transport-logistika, madaniy-gumanitar yaqinlik, “Abadiy do‘stlik to‘g‘risida shartnoma”

Abstract: Among the priority areas of Uzbekistan’s foreign policy, the development of relations with Azerbaijan, which holds significant importance in the South Caucasus region, occupies a special place. The two countries have established allied relations based on a strong foundation of friendship and brotherhood. The fraternal Uzbek and Azerbaijani peoples are closely connected by their common religion, language, customs, culture, and historical affinity. The historically established ties of friendship and cooperation between the peoples of Uzbekistan and Azerbaijan are currently entering a new stage based on modern principles of mutual cooperation. This scientific article discusses the history of cooperation between the peoples of Uzbekistan and Azerbaijan, regarded as gateways to Central Asia and the South Caucasus, as well as their political, economic, and cultural relations. It also examines high-level state visits that have played an important role in the development of bilateral relations.

Keywords: Historical ties, political and economic cooperation, transport and logistics, cultural and humanitarian affinity, “Treaty on Eternal Friendship”.

Аннотация: Среди приоритетныхнапра влений внешней политики Узбекистана особое место занимает развитие отношений с Азербайджаном, имеющим важное значение в регионе Южного Кавказа. Между двумя странами существуют союзнические отношения, основанные на прочном фундаменте дружбы и братства. Близкие по духу узбекский и азербайджанский народы тесно связывают общая религия, язык, традиции, культура и историческая близость.

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

Исторически сложившиеся связи дружбы и сотрудничества между народами Узбекистана и Азербайджана в настоящее время переходят на новый этап, основанный на современных принципах взаимного сотрудничества. В данной научной статье рассматриваются история формирования сотрудничества между народами Узбекистана и Азербайджана, которые считаются воротами Центральной Азии и Южного Кавказа, а также политические, экономические и культурные связи между двумя странами. Кроме того, приводятся государственные визиты на высшем уровне, имеющие важное значение для развития двусторонних отношений.

Ключевые слова: Исторические связи, политическое и экономическое сотрудничество, транспорт и логистика, культурно-гуманитарная близость, «Договор о вечной дружбе».

O‘zbekiston Respublikasi va Ozarbayjon Respublikasi o‘rtasidagi davlatlararo munosabatlar asosini uzoq o‘tmishga borib taqaladigan mustahkam do‘stlik rishtalari va qardoshlik, madaniyatlar, tillar hamda an’analar mushtarakligi, qadim davrlardan buyon ikki mamlakat xalqlarini bog‘lab kelayotgan ma’naviy va insonparvarlik qadriyatlarining umumiyligi tashkil etadi. Avvalboshdanoq teng huquqlilik va konstruktivlik tamoyillari asosidagi hamda milliy manfaatlar va ustuvorliklar hisobga olingan holda qurilgan O‘zbekiston—Ozarbayjon munosabatlari har ikki davlat mustaqillikni qo‘lga kiritganidan so‘ng sifat jihatdan yuqori darajaga ko‘tarildi va ular yanada o‘suvchanlikni kasb etgani holda, yangi mazmun bilan boyidi. Ikki tomonlama siyosiy munosabatlar, O‘zbekiston va Ozarbayjon o‘rtasida diplomatik aloqalar 1995-yil 2-oktabrda o‘rnatilgan. 1996-yilning o‘rtalarida Ozarbayjonning Toshkentda, 1998-yili O‘zbekistonning Bokuda elchixonasi ish boshladi. Davlat rahbarlarining oliy darajadagi davlat tashriflari ikkitomonlama munosabatlarni rivojlantirishda alohida ahamiyatga ega. Shu munosabat bilan O‘zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Islom Karimovning 1996-yil 26-27-may kunlari Ozarbayjonga birinchi rasmiy davlat tashrifini e’tibor bilan ta’kidlash joiz. O‘zaro tushunish va do‘stlik muhitida o‘tgan uchrashuvda ikki mamlakat o‘rtasida 19 ta bitimdan iborat maxsus hujjatlar to‘plami, jumladan, “O‘zbekiston Respublikasi va Ozarbayjon Respublikasi o‘rtasida do‘stlik va hamkorlik to‘g‘risidagi shartnoma” imzolandi. Tashrif davomida Islom Karimovga Boku davlat universitetining faxriy doktori diplomi topshirildi.[1] Ushbu tashrif hamkorlikning asosini yaratdi.

1996-yil Ozarbayjon Prezidenti Haydar Aliyev Turkiy tilli davlatlar rahbarlarining IV forumida hamda buyuk davlat arbobi Amir Temurning 660 yillik yubileyiga bag‘ishlangan tadbirlarda ishtirok etish uchun Toshkentga tashrif buyurdi. 1997-yil 18-19-iyun kunlari Haydar Aliyevning O‘zbekistonga rasmiy tashrifi ikki davlat munosabatlari rivojida muhim bosqich bo‘ldi. O‘zbekiston bilan munosabatlarda aynan Haydar Aliyevning o‘rni sezilarli darajada bo‘ldi.

Ozarbayjon Prezidenti Haydar Aliyevning o‘g‘li Ilhom Aliyevning 2004-yil 23-24-may kunlari O‘zbekistonga davlat tashrifi doirasida ikki davlat rahbarlari o‘rtasida muzokaralar o‘tkazilgan. Unda Ozarbayjon va O‘zbekiston o‘rtasidagi ikki tomonlama hamkorlik istiqbollari muhokama qilingan. Tashrif doirasida Toshkent shahrida buyuk ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviy haykalining ochilish marosimi ham o‘tkazilgan. Keyingi yillarda 2008-yil 11-12-sentabr kunlari O‘zbekiston Prezidenti

[1] Islom Karimov ilmiy-ma’rifiy majmuasi. Foreign Policy. 1996 year [Elektron resurs]. URL: https://islomkarimov.uz/en/pge/foreign-policy-1996

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

Islom Karimovning Ozarbayjonga rasmiy tashrifi ham amalga oshirilgan. Muzokaralar yakunida davlatlar o‘rtasida qator hujjatlar imzolangan. Atrof-muhitni muhofaza qilish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, temiryo‘l transporti, yuk tashish, soliq sohasidagi hamkorlik, axborot almashinuvi, maxfiy axborotni himoya qilish, gumanitar soha, savdo-iqtisodiy va ilmiy-texnik hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha kelishuvlar tuzilgan. Islom Karimov tashrif chog‘ida Haydar Aliyev jamg‘armasi bilan tanishib, Bokuda buyuk o‘zbek shoiri Alisher Navoiy haykalining ochilish marosimida ishtirok etdi.[2]

1999-2003 yillar oralig‘ida imzolangan shartnomalarning mazmuni energetika, neft va gaz sanoati, neft muhandisligi, diplomatik vakolatxonalar, Milliy xavfsizlik xizmatlari, xarita va kadastr, bojxona, jinoyatchilikka qarshi kurash, hamkorlik mexanizmlari, 2001-2006 yillardagi fan, madaniyat va san’at hamkorlik dasturi, 2001-2010 yillardagi iqtisodiy hamkorlik shartnomasi, suv resurslarini boshqarish, ekologiya va tabiiy hayot kabi sohalarni o‘z ichiga oladi. Ushbu shartnomalar, avvalo, tomonlar o'rtasida muzokaralar olib borilganini ko‘rsatadi.[3]

2017-yilda munosabatlar yangi bosqichga ko‘tarildi. O‘zbekistonda Prezident Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida o‘zaro manfaatli va konstruktiv siyosatni saqlab qolish bo‘yicha yangi vazifalar belgilandi, bu vazifalar 2017-2021-yillarga yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar Strategiyasida, 2022-2026-yillarda Rivojlanish Strategiyasida, shuningdek, “O‘zbekiston—2030” strategiyasida o‘z ifodasini topgan. 1991-yildan 2023-yilgacha bo‘lgan davrda ikki davlat o‘rtasida 17 ta oliy darajadagi tashriflar bo‘lib o‘tdi: ulardan 8 tasi O‘zbekiston tomonidan, 9 tasi Ozarbayjon tomonidan bo‘lib, buning natijasida 170 ga yaqin hujjat imzolandi, ular o‘rtasidagi ikkitomonlama va ko‘ptomonlama shartnomalarni mamlakatlar o‘rtasidagi munosabatlarni chuqurlashtirishga xizmat qildi. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil 23-24-noyabr kunlari bo‘lib o‘tgan SPEKA birinchi sammitida ishtirok etish uchun, Bokuga amaliy tashrifi doirasida, O‘zbekiston rahbari 2024-yilni O‘zbekiston-Ozarbayjon ko‘p qirrali munosabatlarni jadal rivojlantirish yili deb e’lon qilishni taklif qildilar, 2024-yilga mo‘ljallangan o‘zaro manfaatli hamkorlikning 10 ta yangi yo‘nalishi bo‘yicha tashabbus ko‘rsatdilar.[4]

O‘zbekiston--Ozarbayjon savdo-iqtisodiy munosabatlari jadal rivojlanayotganidan dalolat sifatida, 2021-yilga kelib, uning hajmi 2016-yilga nisbatan qariyb olti barobar o‘sganligini ko‘rish mumkin. Demak, agar 2016-yilda o‘zaro tovar ayirboshlash hajmi 21,2 mln., dollarni tashkil etgan bo‘lsa, 2021-yil yakunida bu ko‘rsatkich 118,7 mln., dollarni tashkil etdi.[5] 2022-yilda, O‘zbekiston va Ozarbayjon o‘rtasidagi tovar aylanmasi 181,2 mln. dollarni (2021-yilga nisbatan 52,4 foizga o‘sdi), eksport 131,7 mln. dollarni (+73,3 foiz), import 49,5 mln. dollarni (+ 15,3 foiz) tashkil etdi.[6]

2022-yil iyun oyida Strategik sheriklikni chuqurlashtirish va har tomonlama hamkorlikni kengaytirish to‘g‘risidagi deklaratsiyaning hamda 2024-yil avgust oyida Ittifoqchilik munosabatlari to‘g‘risidagi shartnomaning imzolanishi muhim bosqichlarga aylandi.

---

[2] Azərbaycan - Özbəkistan münasibətləri“, Heydər Əliyev İrsi Beynəlxalq Elektron Kitabxanası. URL: http://aliyev-heritage.org

[3] Babayeva-Şükürova F. Özbekistan-Azerbaycan İlişkilerinde Haydar Aliyev'in Rolü. – Ankara: Özgür Yayınları, 2023. – S. 48

[4] Adigezalov A.N. O‘zbekiston Respublikasining Ozarbayjon Respublikasi bilan mintaqaviy va xalqaro tashkilotlar faoliyatidagi hamkorligi. – Toshkent, 2025. – B. 18

[5] O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi ma’lumotlari

[6] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

2017-yilda 32 million dollarni tashkil etgan tovar ayirboshlash hajmi 2025-yilda 300 million dollardan oshdi. Tomonlar yaqin yillarda o‘zaro savdo va investitsiyalar hajmini 1 milliard dollarga yetkazishni maqsad qilgan. Hamkorlikning mazmuni ham sezilarli o‘zgarmoqda. Agar avval asosiy e’tibor savdo operatsiyalariga qaratilgan bo‘lsa, bugun investitsiya, sanoat kooperatsiyasi va qo‘shma ishlab chiqarish loyihalari tobora muhim o‘rin egallamoqda. 2023-yilda ustav kapitali 500 million dollar bo‘lgan qo‘shma investitsiya fondini tashkil etish to‘g‘risida kelishuvga erishilgani yirik loyihalarni moliyalashtirish uchun muhim mexanizm yaratdi. Hozirda O‘zbekistonda Ozarbayjon kapitali ishtirokida 470 tadan ziyod korxona faoliyat yuritmoqda. Ular sanoat, energetika, qurilish, oziq-ovqat, yengil sanoat, moliya va xizmatlar sohalarini qamrab olgan. Ayni paytda Ozarbayjonda ham O‘zbekiston kompaniyalarining faoliyati kengayib bormoqda.[7]

O‘zbek va ozarbayjon xalqlari o‘rtasidagi madaniy aloqalarni, O‘zbekistonning turli hududlarida joylashgan, 7 ta ozarbayjon milliy madaniy markazlari mustahkamlab bormoqda. Ularning faoliyatini, 2003-yilda tashkil etilgan O‘zbekiston Ozarbayjon madaniyat markazlari uyushmasi muvofiqlashtirib boradi. 2004-yilda Ozarbayjonning O‘zbekistondagi elchixonasi huzurida, Haydar Aliyev nomidagi Ozarbayjon madaniyat markazining ochilishi, madaniyatlararo muloqotdagi muhim voqea bo‘ldi. O‘zbekistondagi Haydar Aliyev nomidagi, Ozarbayjon madaniyat markazi bilan yaqin aloqada bo‘lgan “O‘zbekiston – Ozarbayjon” do‘stlik jamiyati ham, ikki mamlakat xalqlarining madaniy-ma’naviy qadriyatlarini o‘zaro boyitishga beqiyos hissa qo‘shmoqda. Hozirgi bosqichda o‘zbek va ozarbayjon xalqlari o‘rtasida keng ko‘lamli almashinuv dasturlarining, real hayotga tatbiq etilishi, ikki davlatning shoir, yozuvchi, musiqa, teatr va tasviriy san’ati, kino ijodkorlarning bevosita ishtirokini aks ettiruvchi “xalq diplomatiyasi”ning rivojlanishi va takomillashuviga bevosita yordam berdi.

Gumanitar hamkorlikni mustahkamlashda, albatta, O‘zbekistondagi ozarbayjon diasporasi katta rol o‘ynaydi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 19-maydagi “Millatlararo munosabatlar va xorijiy davlatlar bilan do‘stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq,[8] O‘zbekiston hukumati etnik ozarbayjonlar diasporasini qo‘llab quvvatlash, ularning har tomonlama ijtimoiy, ma’naviy va madaniy rivojlanishiga alohida e’tibor qaratib kelmoqda. Bu, o‘z navbatida, milliy madaniyat, ona tili, urf-odat va an’analarni asrab-avaylash hamda rivojlantirish imkonini beradi.

Bugungi kunda O‘zbekistonning turli hududlarida 40 mingdan ortiq ozarbayjonliklar istiqomat qiladi. Ozarbayjonlar Buxoro, Qashqadaryo, Navoiy, Samarqand, Sirdaryo, Toshkent va Farg‘ona viloyatlarida ixcham yashaydilar.[9]

Ikki mamlakat o‘rtasidagi gumanitar hamkorlik sohasida, ilm-fan va ta’lim sohasidagi o‘zaro aloqalar alohida o‘rin tutadi. 2023-yil avgust oyida O‘zbekistonning Ozarbayjondagi bosh gumanitar loyihasi yuzaga keldi: Shavkat Mirziyoyev va Ilhom Aliyev birgalikda Fuzuliy shahrida o‘zbek tomoni mablag‘lari hisobiga qurilgan 960 o‘rinli Mirzo Ulug‘bek nomidagi o‘rta

[7] O‘zbekiston–Ozarbayjon: tarixiy aloqalardan strategik ittifoqchilik sari // "Dunyo" axborot agentligi. 2026-yil 22-avgust. – URL: https://dunyo.info

[8] Народное слово. – 2017. – 20 мая.

[9] Adigezalov A.N. O‘zbekiston Respublikasining Ozarbayjon Respublikasi bilan mintaqaviy va xalqaro tashkilotlar faoliyatidagi hamkorligi. – Toshkent, 2025. – B. 19.

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

maktabni ochdi. Maktab o‘z faoliyatini 100 nafar o‘quvchi bilan boshlagan bo‘lsa, bugungi kunda u yerda 650 ga yaqin bola ta’lim olmoqda. Erishilgan kelishuvlar majmuasi, olimlar va ilmiy markazlar, shuningdek, O‘zbekiston va Ozarbayjon ta’lim muassasalari o‘rtasidagi muvaffaqiyatli hamkorlikning olib borilishiga xizmat qilmoqda.[10] O‘zbekiston va Ozarbayjon ta’lim tizimlarida, ilmiy yutuqlar almashish, seminarlar tashkil etish, ilmiy yutuqlar va tajriba almashishga ikki mamlakat ilmiy hamda ta’lim muassasalari o‘rtasida o‘rnatilgan aloqalar ko‘maklashmoqda.

O‘zbekiston va Ozarbayjon transport-logistika sohasida ham alohida hamkorlik tamoyillari shakllangan. O‘rta koridor (Transkaspiy yo‘nalishi) Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi transport-logistika hamkorligining asosiy yo‘nalishi hisoblanadi. Ushbu yo‘nalish orqali Markaziy Osiyodan yuklar Kaspiy dengizi, Ozarbayjon va Gruziya orqali Turkiya hamda Yevropaga jo‘natiladi. O‘zbekiston yuklari Kaspiy dengiziga Qozog‘iston va Turkmaniston portlari orqali chiqadi. Shu bois O‘zbekiston mamlakatni qo‘shnilar hududi orqali o‘tuvchi transport koridoriga bog‘lovchi o‘zaro bog‘liqlik loyihalaridan manfaatdor. 2024-yil oxirida Qirg‘iziston orqali O‘zbekiston va Xitoyni bog‘laydigan yangi temiryo‘l qurilishi boshlangan. Bundan tashqari, Xitoy — Qirg‘iziston — O‘zbekiston — Turkmaniston — Ozarbayjon — Turkiya (CASCA+) multimodal yo‘nalishi faoliyat ko‘rsatmoqda. 2025-yilda ushbu yo‘nalish bo‘ylab 6720 dan ortiq konteyner tashuvlari amalga oshirildi, bu bir yil avvalgiga nisbatan 47 foizga ko‘pdir. 2026-yil uchun ham ushbu yo‘nalish bo‘yicha imtiyozli tariflar belgilangan bo‘lib, tashuvlar hajmining yanada oshishi kutilmoqda. O‘zbekiston Transport vazirligi ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston va Ozarbayjon o‘rtasidagi ikki tomonlama tashuvlar 2024-yil yakunlari bo‘yicha 100 ming tonnadan oshgan va 2023-yilga nisbatan 5 foizga o‘sgan. Tranzit tashuvlarga keladigan bo‘lsak, ularning hajmi ancha ko‘p: 2024-yilda O‘rta koridor doirasida Boku porti orqali 1 million tonnadan ortiq O‘zbekiston yuklari o‘tgan — bu bir yil avvalgiga nisbatan 26 foizga ko‘p. 2026-yilda esa o‘sish 1,5 million tonnagacha yetkazish rejalashtirilgan.[11]

2026-yilning 22-23-avgust kunlari Ozarbayjon Respublikasi prezidenti Ilhom Aliyevning O‘zbekistonga rasmiy tashrifi bo‘lib o‘tdi. Toshkentda bo‘lib o‘tgan uchrashuvda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev Abadiy do‘stlik to‘g‘risidagi shartnoma hamda Oliy davlatlararo kengash uchinchi yig‘ilishining qarorini imzoladilar.[12] O‘zbekiston va Ozarbayjon prezidentlari bir-birini ikki mamlakatning oliy davlat ordenlari bilan mukofotladi. Shavkat Mirziyoyev “Haydar Aliyev” ordeni, Ilhom Aliyev esa “Oliy darajali do‘stlik” ordeni bilan taqdirlandi.

Tashrif davomida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev Yangi Toshkentda Nizomiy Ganjaviy nomidagi O‘zbekiston

[10]1996-yil 27-maydagi O‘zbekiston Respublikasi Hukumati va Ozarbayjon Respublikasi Hukumati o‘rtasida fan, texnika va axborot sohasida hamkorlik to‘g‘risidagi bitim; O‘zbekiston Respublikasi Fan va texnika davlat qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi hamda Ozarbayjon Respublikasi Fan va texnika davlat qo‘mitasi, Ozarbayjon Respublikasi Fanlar akademiyasi o‘rtasidagi bitim; O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi va Ozarbayjon Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi o‘rtasidagi bitim hamda boshqalar.

[11] O‘zbekiston va Ozarbayjon Abadiy do‘stlik to‘g‘risida shartnoma imzoladi // Gazeta.uz. 2026-yil, 23-avgust.

[12] http://www.president.uz http://www.president.uz

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

Milliy pedagogika universitetining yangi kampusini tantanali ochish marosimida ishtirok etdilar. Davlat rahbarlari Nizomiy Ganjaviy haykali yonida daraxt ekdilar. Davlat rahbarlari kampusda yaratilgan o‘quv va ilmiy muhit, axborot-resurs markazi hamda Nizomiy Ganjaviy merosiga bag‘ishlangan muzey ekspozitsiyasi bilan tanishdilar. Muzeyda buyuk ozarbayjon shoiri va mutafakkiri Nizomiy Ganjaviyning hayoti va ijodi, uning boy ma’naviy merosi, shuningdek, O‘zbekiston va Ozarbayjon xalqlari o‘rtasidagi ko‘p asrlik madaniy hamda adabiy aloqalar aks ettirilgan. Yetakchilar ta’lim, ilm-fan va madaniyat sohalaridagi aloqalar ikki qardosh xalqni yanada yaqinlashtirish, yosh avlodni umumiy ma’naviy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega ekanini ta’kidladilar.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston va Ozarbayjon xalqlari o‘rtasidagi tarixiy do‘stlik va hamkorlik rishtalari bugungi kunda o‘zining yuqori bosqichiga chiqdi. O‘zbekiston va Ozarbayjon o‘rtasidagi hamkorlik har tomonlama siyosiy, iqtisodiy, madaniy va gumanitar sohalarda jadal kengaymoqda. Davlatlar o‘rtasida hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqishda prezidentlarning sa’y-harakatlari alohida ahamiyatga ega. Iqtisodiy ko‘lamda tovar ayirboshlash, eksport-import hajmi yildan yilga kengaymoqda. Transport – logistika sohasidagi hamkorlik ham alohida ahamiyat kasb etadi, chunonchi O‘zbekiston Markaziy Osiyo, Ozarbayjon esa Janubiy Kavkaz yo‘laklaridir. Davlatlar o‘rtasida keng rivojlanagan asosiy sohalardan yana biri bu madaniy-gumanitar hamkorlikdir. Shu o‘rinda 2023-yilda ikki davlat prezidentlari ishtirokida Ozarbayjonning Fuzuliy shahrida Mirzo Ulug‘bek nomidagi o‘rta maktabning ochilishi, 2026-yilda yangi Toshkentda Nizomiy Ganjaviy Milliy Pedagogika universitetining ochilishini ham alohida ta’kidalash joiz. Qayd etish lozimki, Ozarbayjon va o‘zbek klassiklari — Alisher Navoiy, Mirzo Ulug‘bek, Nizomiy Ganjaviy, Muhammad Fuzuliy va bir qator buyuk siymolarning yaratgan asarlari nafaqat Sharq xalqlarining, balki butun dunyo sivilizatsiyasining bebaho deyish mumkin bo‘lgan durdonalaridir. Bu boradagi natijalardan biri shuki, Bokuda Alisher Navoiy, Toshkentda esa Nizomiy Ganjaviyning abadiy haykali o‘rnatilgan. O‘zbekiston Milliy Pedagogika universiteti Nizomiy Ganjaviy nomidadir. O‘zbekistonda yashab ijod qilgan ozarbayjonlik shoir Maqsud Shayxzodaning asarlari o‘zbek adabiyotining go‘zal namunalaridir. O‘zbekistonda Ozarbayjon bastakori Arif Melikovning o‘zbek yozuvchisi Sharaf Rashidov asari asosida yaratgan “Ikki qalb dostoni” baleti jahon musiqa san’atining nodir namunalaridan biridir. Yuqorida keltirilgan ikki xalq o‘rtasidagi har bir hamkorlik turi va ularning rivoji muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adigezalov A.N. O‘zbekiston Respublikasining Ozarbayjon Respublikasi bilan mintaqaviy va xalqaro tashkilotlar faoliyatidagi hamkorligi. – Toshkent: 2025.
2. Islom Karimov ilmiy-ma'rifiy majmuasi. Foreign policy. 1996 year [Elektron resurs]. – URL: https://islomkarimov.uz/en/page/foreign-policy-1996
3. „Azərbaycan - Özbəkistan münasibətləri“, Heydər Əliyev İrsi Beynəlxalq Elektron Kitabxanası. – URL: http://aliyev-heritage.org
4. Azerbaijan–Uzbekistan: Bilateral relations based on a shared history enriched with new dimensions, AZERTAC : [Elektron resurs]. – 2026. – URL: azertag.az
5. Babayeva-Şükürova, F. Özbekistan-Azerbaycan İlişkilerinde Haydar Aliyev'in Rolü – Ankara : Özgür Yayınları, 2023.

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

6. O‘zbekiston–Ozarbayjon: tarixiy aloqalardan strategik ittifoqchilik sari // "Dunyo" axborot agentligi. 2026-yil 22-avgust. – URL: https://dunyo.info
7. O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi ma’lumotlari
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari
9. Народное слово. – 2017. – 20 мая.
10. O‘zbekiston va Ozarbayjon Abadiy do‘stlik to‘g‘risida shartnoma imzoladi // Gazeta.uz. 2026-yil, 23-avgust.
11. http://www.president.uz
12. Safarovich, S. S., & Odiljonovich, I. F. (2020). Symbiosis of civilizations as an important factor in the formation and development of scientific thinking in Uzbekistan. Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal, 1-12.
13. Odiljonovich, I. F. (2022). The Role Of Art Exhibitions In The Development Of Cultural Relations Between Uzbekistan And The European Union. Journal of Pharmaceutical Negative Results, 1522-1524.